

SIYOSATNOMA ASARINING O`ZIGA XOS JIHATLARI ASARDA DAVLAT BOSHQARUVIGA ALOQADOR MASALALAR.

Abdusaitova Munisa Sunnat qizi

Mamasaitova Durdon Quvvatovna

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali “Aniq va tabiy fanlar” fakulteti
“Ijtimoiy ish” yo`nalishi III kurs talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Siyosatnoma” asarini asosiy mazmun mohiyai haqida berib o`tilgan. Asar nima mavzuga asoslanganligi yoritilgan. Boshqaruv sohasiga oid rahbarlarga davlat boshqaruvchilariga ko`plab ma`lumotlar berilib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Nizomulmulk, siyosatnoma asari, davlat boshqaruvi, davlat rahbari, insonparvarlik

Necha asrlar davomida “Siyosatnoma” asari o`zining boshqaruv sohasiga oid bilimlarini turli tillarda ko`pgina xalqlarning amiru ulamolari, mutafakkiru ijodkorlari, umuman, ziyoli ahli diqqatini o`ziga tortib keladi. Hatto G`arb mamlakatlarida bu kitob barcha davrlar uchun davlatni, jamiyatni boshqarishda, dinu e`tiqod pokligini, mamlakat yaxlitligi va daxlsizligini saqlashda, fuqarolar haq-huquqlari va osoyishtaligini himoya qilishda, xalqqa shu talablar darajasidagi salohiyatlari rahbarlar bosh bo`lishida asqotadigan yaxshi qo`llanma, maroqli badiiy asar va tarixiy manba sifatida e`tirof etilgan. Kitob tarixchilar, siyosatchi va siyosatshunoslar, faylasuflar shuningdek, bu sohaga qiziqqan kitobxonlarga mo`ljallangan. Nizom ul-mulkning hayotiga to`xtaladigan bo`lsak, u Nishapur va Marvda o`qigan. Voyaga yetgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon xizmatiga o`tadi. Keyinchalik u Dovud ibn Mikoilga dabir lavozimida xizmat qiladi. Alp Arslon saroyidagi xizmatlari tufayli u vazirlik darajasiga ko`tariladi. 17 yoshida taxtga chiqqan Malikshoh saroyida Nizom ul-mulk vazirlik faoliyatini davom ettirgan holda qariyb davlatning hamma ishlarini o`zi olib borgan. Malikshoh uni o`z homiysi – Otabek deb

atagan. Nizom ul-mulk o`zining mashhur fors tilidagi “Siyosatnama” (“Siyar ul-muluk”) asarini yozdi. Asarda davlat boshqaruvi, siyosat tamoyillari haqida atroflicha so`z yuritilgan. Nizom ul-mulk mamlakatda yirik mulkdorlar va qabila boshliqlarining ayirmachilik (separatistik) harakatlariga qarshi kurashib, davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini amalga oshirgan. “Siyosatnama” asarida davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo`shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalasi, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg`oqchilik (razvetka)ishlari ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf masalalari ham o`rin olgan. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va

vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo`shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari,

ularning maoshlari, pochta va ayg`oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va hiroj, zakot va yaqf masalalari ham o`rin olgan. Asarda uchraydigan tarixiy-falsafiy va davlat boshqaruviga oid ma`lumotlarni quyida quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- siyosiy tarixga oid ma`lumotlar

- | | | |
|---|----------|-----------------------|
| - ijtimoiy-iqtisodiy hayotga | doir | ma`lumotlar; |
| - ma`naviy hayotga | | tegishli ma`lumotlar; |
| - islom mazhablari o`rtasidagi kurashlar | tarixiga | oid ma`lumotlar; |
| - boshqaruvning diniy va | | dunyoviy tamoyillari; |
| - siyosat falsafasi, o`zini o`zi boshqaruv institutlari. ¹ | | |

1. ¹ <https://genderi.org/orta-asr-iqtisodiy-qarashlari.html?page=8>

“Siyosatnama” ning asosiy g`oyasi shundan iboratki, vazir Nizom ul-mulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulk va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat’iy qoida va tartib o`rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo`lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta’minalash uchun harakat qilishga da’vat etishdir.U asarining asosiy qismida davlatning yer egaligi shakli “ iqto` ” ni qattiq tanqid qilgan. Sababi ushbu yer egaligi hukmron tabaqa vakillariga, yirik amaldorlar, harbiylar va boshqa xizmat ko`rsatgan shaxslarga yer in’om etish uchun juda zarur edi. Bu yer egalari esa doimo markaziy hokimyatdan qochishga, mustaqil bo`lishga intilar edilar. Bu hol tabiiyki, davlatning markazlashuviga, xalqning tinch-osoyishta yashashiga to`sinqinlik qilar edi.

Insonparvar podshoh davlatni uzoq boshqaradi, xalq farovonligini o’ylaydi, zo’rlik ishlatmaydi. «Kim insonparvarlikka chindan intilsa, u hech qachon yomon ishlar qilmaydi. Bu so`zlar asarning asosiy maqsadlaridan hisoblangan. Kim insoniylikni sevsa, undan yuqori narsa yo’q deb hisoblaydi», degan g`oyani o’z davrida alloma Konfusiy ilgari surgan edi. Bunday g’oyalarni Nizomulmulkda ham kuzatish mumkin. To’g’ri, ba’zan Nizomulmulk insoniylikni kichiklarning

kattalarga hurmat ko’rsatishi, deb ham talqin qiladi. Keyin ushbu talqinni podshoh (sulton) va xalq (raiyat), amaldor (xizmatchi) va fuqaro (inson), davlat va shaxs munosabatlariiga ko’chiradi. Qanday bo’lmisin, jamiyat va davlatni boshqarishda insoniylik, insonparvarlik tamoyillariga tayanishga da’vat - Nizomulmulk ijodidagi olija nob jihatdir. Xalq, odamlar, amaldorlarning qanday sifatlarni o’zida shakllantirishi yoki ulug’lashi podshoh (sulton)dagi fazilatlarga bevosita bog’liqdir. Bu o’rinda Sharq xalqlariga xos bo’lgan «aravaning katta g’ildiragi qayerdan yursa, kichik g’ildirak ham shu yerdan yuradi», degan maqol esga tushadi. «Xalqni o’z ketidan ergashishga majbur qilish mumkin, lekin u nima uchun majbur qilinayotganini bilmasa, davlat uchun yomondir». «Hukmdor o’z axloqini tuzatmasa, u kichik odam, xalq axloqini ham tuzatolmaydi», "badaxloqlik

oxir-oqibatda davlatni, boshqaruvni tanazzulga olib keladi..." Bunday siyosiy qarashlar Nizomulmulk asarining maqsadini ifoda qiladi. Agar Nizomulmulk Makiavelli, hukmdor xalqni, davlatni kuch bilan, qurol ishlatib ushlab turishi zarurligini ta'kidlasa, Nizomulmulk siyosiy jihatdan boshqarishni yoqlaydi.

Xulosa o`rnida aytish mumkunki xalqparvar davlat boshqaruvchisi adolatli rahbar doimo har bir rivojlanib o`sib borayotgan davlat yuqorisida turishligi qadrlanishligi hamda hurmat etibor qozonishi Nizomulmulk asarida ham kuzatish mumkin. Demak, insonparvarlik shaxslararo munosabatlardangina iborat emas, u jamiyat va davlatni boshqarishga ham taalluqli voqelikdir. har qaysi davrda ham madaniy jihatdan rivojlangan jamiyat ijtimoiy ishlab chiqarishning yuqori pog`onalarini egallaydi. Ana shunday insonlar yashab o`tgan davr haqida va ularning hayotiy faoliyatları to`g`risida doimo yaxshilik bilan eslanadi. Bugungi yoshlar esa ularning xizmatlari uchun doimo minnatdorlik hissini unutmaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://genderi.org/orta-asr-iqtisodiy-qarashlari.html?page=8>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/1067>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/nizomulmulk-siyosatnama-siyar-ul-muluk>
4. <https://uzsmart.uz/kitoblar/view/4607>
5. <https://aim.uz/kitoblar/ilmiy-o-quv-adabiyotlar/47916-siyosatnama-siyar-ul-muluk.html>